

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT  
UNIVERSITETI**

**“IQTISODIYOT” FAKULTETI**

**IQTISODIY TADQIQOTLAR  
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,  
“ECONOMIC RESEARCH)**

**ILMIY JURNALI**

**1**

---

**2023**

**Toshkent**

**1  
2023**

**Elektron ilmiy jurnal  
Научный электронный  
журнал  
Scientific digital journal**

**IQTISODIY TADQIQOTLAR  
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

**MUASSIS**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Tahrir kengashi raisi:**

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

**Tahrir kengashi:**

Eshov Mansur Po'latovich- i.f.d., professor  
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor  
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor  
Begalov Baxodir Abdusalovich– i.f.d., professor  
Bekmurodov Adxam Sharipovich- i.f.d., professor  
Vaxabov Abduraxim Vasikovich- i.f.d., professor  
Maxmudov Nosir Maxmudovich- i.f.d., professor  
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich- i.f.d., professor  
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich- i.f.d., professor  
Jumayev Nodir Xosiyatovich- i.f.d., professor  
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich- i.f.d., professor  
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich- i.f.d., professor  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d. PhD, dotsent  
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent  
Asqarova Mavluda Turopovna– i.f.n., dotsent  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich– i.f.n., dotsent  
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent  
Kamalova Malika Nizamovna– i.f.n., dotsent  
Mamaraximov Bekzod Erkinovich- i.f.n., dotsent

**Tahrir hay'ati:**

Begzod O'rinov– (AQSh)  
Uktam Burxanov – (Chexiya)  
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)  
Mark Rozenbaum (AQSh)  
Volfgang Lukas (Germaniya)  
N.V.Morozov (Rossiya)  
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)  
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)  
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)  
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)  
Sherqul Shodmonov (Toshkent)  
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)  
Axmedjon Mamatov (Toshkent)  
Ju Jengron (Xitoy)  
Jou Chingjiye (Xitoy)

© ISSN 2181-4457

**IQTISODIY TADQIQOTLAR  
ILMIY JURNALI**

**1  
2023**

**Elektron ilmiy jurnal  
Научный электронный  
журнал  
Scientific digital journal**

**Bosh muharrir:**

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

**Adabiy muharrir**

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

**Bosh muharrir o'rinbosari**

Amirov L.F. - PhD

**Musahhih:**

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

**Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>**

**E-mail: [economicresearchjournal@gmail.com](mailto:economicresearchjournal@gmail.com)**

## MUNDARIJA

<b>IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT</b>		
Rasulev A.F. Shomurodov T.B.	Development process of Islamic finance in Uzbekistan: opportunities and future outlook	5
Mamatov M. A Jo'rayev G'.B.	Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribasi	14
<b>BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV</b>		
Kakhorova A.N.	The theory, objective and function of the monetary policy	25
<b>INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK</b>		
Sherkulova N.B.	Aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishda rekruting xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.	32
Kuziyeva G.R.	Education Policy and Human Capital Development: Evaluating the effectiveness of different education policies in Uzbekistan	45
<b>TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH</b>		
Sharipov K.B.	Iqtisodiyot tarmoqlari ixtisoslashuvining nazariy asoslari, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar	55
Mamatov S.A.	Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.	66

**TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS  
RIVOJLANTIRISH**

**ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ ИХТИСОСЛАШУВИНИНГ  
НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ, ТУРЛАРИ ВА УНГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ  
ОМИЛЛАР**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ, ВИДЫ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ  
НА СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕТЕЙ**

**THEORETICAL PRINCIPLES, TYPES AND FACTORS AFFECTING  
THE SPECIALIZATION OF ECONOMIC NETWORKS**

**Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich –  
universiteti “Fundamental iqtisodiyot”**

**E-mail. [k.b.sharipov@tsue.uz](mailto:k.b.sharipov@tsue.uz)**

**Annотatsiya.** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot rivojlanishida ixtisoslashuv jarayoni amal qilishining nazariy asoslari, jumladan, mehnat taqsimoti bilan bog'liqligi, iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'siri, ishlab chiqarish ixtisoslashuvining turli miqyos yoki darajalari, sanoat ishlab chiqarishida ixtisoslashuv turlari, ularning o'ziga xos xususiyatli jihatlari ko'rib chiqilgan. Ixtisoslashuv tushunchasining mavjud ta'riflarini asosiy yondashuvlari bo'yicha tizimlashtirish orqali mualliflik ta'rifi shakllantirilgan. Ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tasniflanib, ular ahamiyat darajasi jihatidan muayyan tartibda tizimlashtirilgan. Iqtisodiyotda korxonaning tarmoq jihatdan mansubligini aniqlashning ma'muriy-tashkiliy va mahsulot belgilaridan foydalanish nazariy jihatdan asoslangan.

**Tayanch iboralar:** ixtisoslashuv, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish ixtisoslashuv, sanoat ishlab chiqarishida ixtisoslashuv, ixtisoslashuv turlari, ixtisoslashuv darajalari, buyum (predmet), detal va texnologiya bo'yicha ixtisoslashuv, tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены теоретические основы функционирования процесса специализации в развитии национальной экономики, в частности, взаимосвязь специализации с разделением труда, её влияние на развитие экономики, различные масштабы и уровня специализации производства, виды специализации в промышленном производстве и их

своеобразные особенности. Сформулировано авторское определение понятия специализации через систематизации её основных научных подходов. Классифицированы основные факторы, влияющие производственную специализацию, и систематизированы на основе последовательности по степени значимости. Иқтисодиётда корхонанинг тармоқ жихатдан мансублигини аниқлашнинг маъмурий-ташкилий ва маҳсулот белгиларидан фойдаланиш назарий жихатдан асосланган. Теоретически обоснованы использования критериев, связанные с административно-организационными и продуктивными признаками при определении отраслеую принадлежности предприятия в экономике.

**Ключевые слова:** специализация, разделения труда, специализация производства, специализация промышленного производства, виды специализации, уровень специализации, предметная, детальная и технологическая специализация, отраслевая специализация.

**Abstract.** This article discusses the theoretical foundations of the functioning of the specialization process in the development of the national economy, in particular, the relationship of specialization with the division of labor, its impact on the development of the economy, various scales and levels of specialization of production, types of specialization in industrial production and their peculiar features. The author defines the concept of specialization through the systematization of its basic scientific approaches. The main factors influencing production specialization are classified and systematized on the basis of sequence according to the degree of significance. The use of criteria related to administrative-organizational and productive features in determining the industry sector of an enterprise in the economy is theoretically substantiated.

**Keywords:** specialization, division of labor, specialization of production, specialization of industrial production, types of specialization, level of specialization, subject, detailed and technological specialization, industry specialization.

## **KIRISH**

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti juda serqirra va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Uning tarkibida obyektiv tavsifdagi, masalan, tabiiy va mehnat resurslariga boyligi, qulay iqlimga hamda geografik joylashuvga egaligi kabi omillar ahamiyatli salmoq va ta'sir darajasiga ega. Biroq, shu bilan birga, subyektiv tavsifdagi, ya'ni, davlatning makroiqtisodiy va mintaqaviy iqtisodiy siyosati, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini to'liq realizatsiya qiluvchi samarali iqtisodiy mexanizmning tarkib topganligi va boshqa ko'plab omillar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar tarkibiga kiruvchi muhim jihatlardan biri ixtisoslashuv jarayoni hisoblanadi. Ixtisoslashuv tushunchasi, o‘z ma‘nosiga ko‘ra, umumiy holda subyektning o‘z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida uni ko‘plab va xilma-xil jarayon yoki faoliyat obyektlaridan biriga yoki bir nechtaga yo‘naltirishini anglatadi. “Ixtisoslashuv” atamasi (lot. specialis – o‘ziga xos) faoliyatning qandaydir mashg‘ulot, mutaxassislikda joylashuvini anglatadi. YE.YE.Rumyansevaning fikriga ko‘ra, ixtisoslashuv – bu “individ yoki tashkilot faoliyatining qandaydir tabiiy yoki o‘zlashtirilgan ustuvorlikka ega bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarida konsentratsiyalashuvidir” [1].

V.G.Gusakovning ta‘rifiga ko‘ra, «Ixtisoslashuv – faoliyatni nisbatan qulay ishlab chiqarish shart-sharoitlariga ega bir yoki bir necha turdagi raqobatbardoshli tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirish» [2] hisoblanadi. Odatda ixtisoslashuv mehnat taqsimotining ta‘sirida amalga oshadi.

“Ixtisoslashuvning tarkib topgan mutlaq va nisbiy ustunliklarni ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi yuqori samarali ishlab chiqarishning muhim zaxirasi sifatida vujudga kelishi va qaror topishi avval boshdanoq turli-tuman tabiiy shart-sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy mehnat taqsimoti hamda uning asosida almashuv jarayonlarining paydo bo‘lishi sifatidagi jamiyat taraqqiyoti xususiyatlari bilan bog‘liq.

Mehnat taqsimotining ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligining o‘shidagi ahamiyatiga qadimgi mutafakkirlardan Isokrat, Platon, shuningdek, XVII–XVIII asr iqtisodchilaridan U.Petti, A.Fergyuson, J.Styuart, A.Smit va boshqalar e‘tibor qaratganlar. Biroq, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning mohiyati ilk bor klassik iqtisodchi olim Adam Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» (1776) nomli asarida ilmiy jihatdan bayon etilgan. “Mehnat taqsimotining asosiy sharti bo‘lib turli nuqtai nazardan qaralishi lozim bo‘lgan naf hisoblanadi: ishlab chiqaruvchi uchun – bu mehnat mahsulini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni tejash; iste‘molchi uchun – bu mahsulot sifati va narxi. Shunday qilib, ixtisoslashuv mazkur jarayondan naf olish imkonini beruvchi mehnat taqsimotini namoyon etadi” [3]. Shuningdek, A.Smit “mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, demak, tegishli ravishda ixtisoslashuvni rivojlantirishning zarur sharti bo‘lib ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilgan mahsuli sotilishi (ayirboshlanishi) mumkin bo‘lgan bozor hajmi hisoblanadi” [3]. YA’ni, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning paydo bo‘lishi bilan mazkur mehnatning natijalari bilan muntazam ayirboshlash zarur bo‘lib, uning mavjud bo‘lmasligi ixtisoslashuvning chuqurlashuvi imkoniyatlariga to‘sqinlik qilardi [4].

Adam Smit o‘z asarining birinchi bobida to‘g‘nog‘ichlar ishlab chiqarishdagi mehnat taqsimotiga misol keltiradi. U to‘g‘nog‘ich ishlab chiqaruvchi

manufakturada bo'lganda, bu yerda 10 ta ishchi kuniga 48000 dona, yoki har bir ishchi 4800 donadan to'g'nog'ich ishlab chiqarayotganini ko'radi. Agar ishchilarning har biri alohida ishlaganda, ularning har biri 20 donadan ortiq to'g'nog'ich ishlab chiqara olmagan bo'lar edi. Bir ish kunida manufaktura ishchisi – 4800 dona, yakka hunarmand esa – atigi 20 dona. Mehnat unumdorligidagi tafovut 240 martani tashkil etadi.

Mehnat taqsimoti nafaqat bitta korxonadagi, balki yaxlit jamiyatdagi samaradorlikning oshishiga imkon yaratadi. Adam Smit ijtimoiy mehnat taqsimotining rolini qaychi ishlab chiqarish misolida ko'rsatib beradi. Qaychini ishlab chiqarishda konchi, o'tinchi, ko'mirchi, quruvchi, g'isht teruvchi, metall quyuvchi, temirchi, pichoqchi, asbob yasovchi ishtirok etadi. Mehnat taqsimoti va ayirboshlash o'zaro bog'liq. "O'z mehnatining shaxsiy iste'molidan ortiqcha bo'lgan barcha mahsulotini boshqa kishilardagi o'zi ehtiyoj sezgan mahsulotlarga ayirboshlay olish imkoniga bo'lgan ishonchi har bir kishini o'zini muayyan alohida mashg'ulotga bag'ishlash hamda mazkur ixtisoslashgan soha bo'yicha o'zining tabiiy iste'dodini takomilga qadar rivojlantirishga undaydi" [5].

A.Ibragimov ixtisoslashuvning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi. "Ixtisoslashuv katta iqtisodiy ahamiyatga ega: birinchidan, raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarishga moddiy va moliyaviy resurslarning konsentratsiyalashuviga imkon yaratadi; ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyoti, ASM tarmoqlarini rivojlanishning industrial yo'liga o'tishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi; uchinchidan, mehnatni tashkil etish shakllarini takomillashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi; to'rtinchidan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishni rag'batlantiradi" [6].

Ixtisoslashuv tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, uni alohida shaxs – ishlovchidan tortib to korxonalar, tarmoq, hudud, mintaqalar va milliy iqtisodiyot darajasiga qadar qo'llash mumkin. Biroq, iqtisodiy adabiyotda ixtisoslashuv jarayoni ko'proq ishlab chiqarishga nisbatan qo'llaniladi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi o'z navbatida turli miqyos yoki darajalarda olinishi mumkin. Masalan:


1) korxonalar yoki uning biron-bir tarkibiy bo'limi, uchastkasidagi ishlab chiqarish jarayonining ixtisoslashuvi;

2) bir xil yo'nalishdagi korxonalar majmui – tarmoq yoki soha ishlab chiqarishi ixtisoslashuvi;

3) muayyan hudud (mintaqa)da joylashuv jihatidan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi.

4) tarmoq va sohalarning majmui – milliy iqtisodiyot darajasidagi ixtisoslashuv.

Iqtisodiy adabiyotlarda odatda sanoat ishlab chiqarishidagi ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni to‘g‘risida kengroq ma‘lumotlar berilgan. Jumladan, ularda yoritilishicha, ixtisoslashuvning uchta turi farqlanadi: buyum (predmet), detal bo‘yicha va texnologik jihatdan (1-rasm).



**1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishida ixtisoslashuv turlari [7].**

Ixtisoslashuv jarayonining iqtisodiy mazmunini to‘laroq bayon etish uchun yuqorida qayd etilgan ixtisoslashuv turlari bo‘yicha ma‘lumotlarni muayyan tizimga solish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-jadval).

Ixtisoslashuv mehnat unumdorligining o‘rishini ta‘minlovchi fan-texnik taraqqiyotning yutuqlarini joriy etish bilan uzviy bog‘liq.

Ixtisoslashuv turli shakllarda amalga oshirilib, ulardan har biri quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali aniqlanadi:

- tovar mahsulotning muayyan nomenklaturasini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvchi tarmoq va sanoat korxonalarining shakllanishi;

- tovar tayyorlashning texnologik jarayonini navbatdagi ichki ishlab chiqarish konsentratsiyasi bilan xususiy texnologik operatsiyalar uchun detaldan tortib to agregatgacha ishlab chiqarishni tabaqalashtirish;

- muayyan texnologik operatsiyalarni bajarish bilan bog‘liq yangi ishlab chiqarishlarni yaratish [8]. Ta‘riflarning tizimli tahlili asosida, fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan quyidagi mualliflik ta‘rifining shakllantirilishi maqsadga muvofiq: “Ixtisoslashuv – xo‘jalik yuritishning turli subyektlari tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishning tegishli darajasida ko‘proq iqtisodiy naf keltiruvchi faoliyat turi yoki uning muayyan qismi bilan shug‘ullanishga yo‘naltirilgan jarayon”.

2-jadval

Ixtisoslashuv turlarining o'ziga xos xususiyatli jihatlari [7]

Tavsifiy jihatlari	Xususiyatli belgilari
<b>Buyum (predmet) bo'yicha ixtisoslashuv</b>	
Subyekti	iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun mo'ljallangan muayyan mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan korxonalar
Predmeti	stanok, samolyot, traktor, avtomobil, poyafzal, televizor va boshq.
Xususiyatli tarmoqlar	ko'proq mashinasozlik va yengil sanoat tarmoqlari.
Maqsadi	ixtisoslashtirilgan korxonalarda tovar muayyan turining iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan raqobatini shakllantirish
Kamchiligi	ishlab chiqarish jarayonining asosan yopiq sikl bo'yicha tashkil etilishi, ya'ni, ketma-ket bajariluvchi texnologik operatsiyalar shart-sharoitlari bilan cheklanib qolishi
Amal qilish doirasi	faqat ishlab chiqarishning yirik seriyali va ommaviy turida iqtisodiy samarali bo'lib, yuqori unumdorli ixtisoslashtirilgan asbob-uskunalaridan maksimal darajada samarali foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi
<b>Detal bo'yicha ixtisoslashuv</b>	
Subyekti	keyinchalik tayyor mahsulotning komplektatsiyasi uchun foydalaniluvchi alohida detallar, qismlar, agregatlarni mustaqil ishlab chiqarishga qaratilgan korxonalar
Predmeti	konstruktiv-texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan buyumlar
Xususiyatli tarmoqlar	tayyor mahsulot agregat, qism va detallarga ajratilishi mumkin bo'lgan tarmoqlar, jumladan, mashinasozlik, poyafzal va mebel sanoati va boshq.
Maqsadi	yuqori unumli asbob-uskunalar, ilg'or texnologiyalar va h.k.ni jalb etgan holda muayyan nomenklaturadagi detallarni yirik seriyali yoki ommaviy ravishda ishlab chiqarishni tashkil etishning real imkoniyatini hosil qilish
Kamchiligi	bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni takrorlanishiga hamda yo'nalishga mos kelmaydigan mahsulot ulushining o'sishiga olib keluvchi bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan holdagi joylashuvi
<b>Texnologik jihatdan ixtisoslashuv</b>	
Subyekti	texnologik jarayon yoki operatsiyalarning alohida bosqichlarini bajarish bo'yicha mustaqil ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan korxonalar
Predmeti	quyuvchi va temirchilik-shtamplash zavodlari, shakar, tamakini qadoqlash, sut quyish korxonalari va boshq.
Xususiyatli tarmoqlar	ko'proq mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari
Maqsadi	ixtisoslashtirilgan korxonalarda tovar muayyan turining iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan raqobatini shakllantirish
Kamchiligi	ishlab chiqarish jarayonining asosan yopiq sikl bo'yicha tashkil etilishi, ya'ni, ketma-ket bajariluvchi texnologik operatsiyalar shart-sharoitlari bilan cheklanib qolishi
Amal qilish doirasi	mehnat taqsimoti chuqurlashuvi sur'atlarining pasayishiga hamda tarmoq va tarmoq ichidagi ixtisoslashuvning yanada rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi

Ayrim manbalarda ixtisoslashuv sanoat, tarmoq, korxonaning ixtisoslashuvi kabi turlarga turkumlanadi. YA'ni, "mehnat taqsimoti (ixtisoslashuv) sanoat, tarmoq, korxonaning ixtisoslashuvi orqali namoyon bo'lishi mumkin" (3-jadval).

**Ixtisoslashuv asosiy turlarining mazmuni [8]**

<b>Ixtisoslashuv turlari</b>	<b>Ixtisoslashuv turlarining mazmuni</b>
Sanoatning ixtisoslashuvi	amaldagi tarmoqlarning bo‘linishi va yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishini anglatib, u ishlab chiqarilgan ixtisoslashgan mahsulot, texnologik jarayonlar va moddiy resurslar iste’moli birligining iqtisodiy ahamiyatini aks ettiradi
Tarmoqning ixtisoslashuvi	tarmoq tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalarining potensial texnologik imkoniyatlarini ko‘rsatib, bunday tarmoqlarda texnologik jihatdan bir turdagi, shartli-doimiy nomenklaturadagi tovar mahsulotlari ishlab chiqariladi
Sanoat korxonalarining ixtisoslashuvi	texnologik jihatdan bir turdagi va deyarli doimiy bo‘lgan, biroq ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasini qisqartirishga intiluvchi ishlab chiqarishni ko‘zda tutuvchi, tarmoq ichidagi birlamchi (yagona) mehnat taqsimoti

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashuv jarayoniga berilgan ta’riflar xilma-xil bo‘lib, uning mazmunini to‘liq bayon etish uchun mazkur ta’riflarni ulardagi asosiy yondashuvlar bo‘yicha muayyan tizimga solish maqsadga muvofiq hisoblanadi (4-jadval).

Ixtisoslashuvni o‘rganish va tahlil qilishda uning shakllariga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Biroq ilmiy adabiyotda ixtisoslashuv shakllari va turlarining aniq va tizimga solingan tasnifi bayon etilmagan, ayrim mualliflar tomonidan uning alohida turlari ajratib ko‘rsatilgan xolos. Shu sababli, N.Shestakovich tomonidan ularning turli jihatdan turkumlanishi taklif etilgan Shuningdek, u ixtisoslashuvning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini quyidagi holatlar orqali ifodalaydi:

1) ixtisoslashuv mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari o‘shish sur‘atiga nisbatan uning hajmining yuqoriroq o‘shish sur‘atini taqozo etuvchi ishlab chiqarishning ijobiy miqyos samarasiga erishish uchun imkoniyatlarni ochib beradi;

2) ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish mazkur jarayonga fan, texnika va texnologiyaning ilg‘or yutuqlarini joriy etish uchun yaxshi asos bo‘lib xizmat qiladi. Qimmatbaho ixtisoslashtirilgan yuqori unumli texnikani qo‘llash faqat undan to‘liq foydalanish sharoitida o‘zini oqlash mumkin. Bu bir vaqtning o‘zida ko‘p miqdordagi tarmoqlarni rivojlantiruvchi xo‘jaliklarda emas, balki aynan texnikaning qiymati amortizatsiya ajratmasi shaklida ahamiyatli darajadagi katta hajmga ega bo‘lgan bir turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotiga bir tekisda o‘tkaziluvchi ixtisoslashgan xo‘jaliklarda imkon doirasida bo‘lishi mumkin [4].

**4-jadval**

**Ixtisoslashuv tushunchasiga berilgan ta’riflarning asosiy yondashuvlari bo‘yicha tizimlashtirilishi**

<b>Yondashuvlar</b>	<b>Ta’riflar</b>
Ijtimoiy mehnat taqsimoti shakli sifatida yondashuv	keng ma’noda – ijtimoiy mehnat taqsimoti shakli, mahsulot alohida turlari yoki uning alohida qismlarini ishlab chiqarishning mustaqil tarmoqlar, ishlab chiqarish, ixtisoslashgan korxonalarda joylashuvi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi mahsulot ishlab chiqarishning ko‘payishi, uning sifatini oshishi, mehnat unumdorligining o‘shishiga imkon yaratadi [9].
	ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan biri [10]
Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish faoliyatining konsentratsiyasi ifodasi sifatida yondashuv	mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish faoliyatining konsentratsiyasi orqali ifodalanuvchi iqtisodiy jihatdan asoslangan shakl. U mahsulot muayyan nomenklaturasining ommaviy ravishda va yirik seriyali ishlab chiqarishiga yoki muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan [8].
Ishlab chiqarishning ixtisoslashgan korxonalarda konsentratsiyalashuvi sifatida yondashuv	ishlab chiqarishning ommaviyligi va potokliligini oshirish orqali ishlab chiqarishning samaradorligi va mehnat unumdorligining o‘shishiga olib keluvchi bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishning ixtisoslashgan korxonalarda konsentratsiyalashuvi [9].
Faoliyatning tor doiradagi tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi sifatida yondashuv	kompaniya asosiy faoliyatining mahsulot, tovarlar va xizmatning tor doirasini ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi [1; 11].

Ixtisoslashuvni o‘rganish va tahlil qilishda uning shakllariga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Biroq ilmiy adabiyotda ixtisoslashuv shakllari va turlarining aniq va tizimga solingan tasnifi bayon etilmagan, ayrim mualliflar tomonidan uning alohida turlari ajratib ko‘rsatilgan xolos (5-jadval).

### 5-jadval

#### Ixtisoslashuv turlari va shakllari turkumlanishi [4]

Ixtisoslashuv jarayoni obyekti	Ixtisoslashuv turi	Ixtisoslashuv shakli
Texnologik jarayon	Texnologik jihatdan	– predmet bo‘yicha – detal bo‘yicha – element bo‘yicha
Xo‘jalik yurituvchi subyekt	Xo‘jalik jihatidan	– umumxo‘jalik – ichki xo‘jalik – xo‘jaliklararo
Tarmoq	Tarmoq jihatidan	– tarmoq ichida – tarmoqlararo
Hudud	Hudud jihatidan	– xalqaro miqyosda – mintaqa bo‘yicha – respublika bo‘yicha – zona bo‘yicha

Shu o‘rinda H.Shestakovichning ixtisoslashuv turlari va shakllarini turkumlash bo‘yicha yondashuviga nisbatan K.Gadjimuradovanning boshqa bir yondashuvini ko‘rish mumkin: “Texnologik belgisiga ko‘ra tarmoq va tarmoq ichidagi ixtisoslashuvga ajratiladi. Qishloq xo‘jaligi korxonasi to‘liq, ya’ni tayyor mahsulotni olgunga qadar bo‘lgan texnologik siklni bajargan holdagi ixtisoslashuvni tarmoq ixtisoslashuvi deyiladi. Tarmoq ichidagi ixtisoslashuv texnologik siklni qismlarga ajratish hamda uning alohida sqichlarini turli korxonalarga birlashtirishga asoslanadi. Bunda har bir xo‘jalik mahsulot ishlab chiqarishning to‘liq tugallangan siklini amalga oshirmaydi, balki muayyan alohida bosqichni bajarishga ixtisoslashadi. Tarmoq ichidagi ixtisoslashuv mahsulot olishning alohida bosqichlari turli xo‘jalik ichki bo‘linmalarida amalga oshiriluvchi bitta xo‘jalik ichida bo‘lishi ham mumkin” [12].

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining chuqurlashishi orqali ishlab chiqarish ijtimoiyligi tavsifining kuchayishi namoyon bo‘ladi. Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish miqyoslarining o‘sishi – ixtisoslashuv chuqurlashishining muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.

Yirik tarmoqlar (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va h.k.) nisbatan mayda ixtisoslashgan tarmoqlarga bo‘linadi. Buni sanoat tarmog‘i misolida nisbatan aniqroq ifodalash mumkin. U, xususan, ixtisoslashgan tarmoqlarning ikkita katta guruhiga bo‘linadi: undirma va qayta ishlovchi sanoat. O‘z navbatida, qayta ishlash sanoati yengil, oziq-ovqat, og‘ir sanoat va h.k.larga bo‘linadi.

Turli sabablarga ko‘ra korxonalarining ixtisoslashuvi doimo ham tarmoqning ma’muriy tuzilmasi va asosiy ixtisoslashuviga mos kelavermaydi. Masalan, ko‘plab mashinasozlikka mansub bo‘lmagan (metallurgiya, ko‘mir va neft qazib oluvchi)

tarmoqlarda mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash bo'yicha yirik sex va zavodlar, uchastkalar mavjud bo'ladi. Shu bilan bir qatorda mashinasozlikda metallurgiya va kimyo korxonalari, elektr stansiyalari, transport bo'linmalari va boshqalar mavjud bo'ladi.

Shunga ko'ra, iqtisodiyotda korxonaning tarmoq jihatdan mansubligini aniqlashning ikki turi – ma'muriy-tashkiliy va mahsulot belgilaridan foydalaniladi. Ma'muriy-tashkiliy belgisidan foydalanishda faoliyatning asosiy tanlangan (hujjatda rasmiylashtirilgan) turi, shuningdek, u yoki bu idora va firma (xolding, konsern)ga mansubligi hisobga olinadi. Mahsulot belgisiga muvofiq ravishda har bir sof (alohida) tarmoq bo'yicha tarkibiy tuzilma va ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Zamonaviy korxonalarning ommaviy ravishda diversifikatsiyalashuvi munosabati bilan mazkur belgi, qoida tariqasida, tasniflash uchun yagona yondashuv bo'lib qolmoqda [13].

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

- ixtisoslashuv xo'jalik yuritishning turli subyektlari tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishning tegishli darajasida ko'proq iqtisodiy naf keltiruvchi faoliyat turi yoki uning muayyan qismi bilan shug'ullanishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, milliy iqtisodiyot darajasida uning ijobiy ta'siriga erishish turli xo'jalik subyektlari faoliyatining kooperatsiyalashuvini ham taqozo etadi;

- milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarining kengayib borishi ixtisoslashuv jarayonlarining sof iqtisodiy manfaatlar asosida ro'y berishini ta'minlaydi. Biroq, buning o'ziga xos salbiy jihati ham namoyon bo'ladi: tor xususiy manfaatlar ta'sirida amalga oshuvchi ixtisoslashuv yetarli darajadagi kooperatsiyani ta'minlay olmasligi mumkin. Bu esa ixtisoslashuv jarayonlarini muayyan darajada tartibga solish zaruratini keltirib chiqaradi;

- mamlakatimiz iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda tarmoq va tarmoq ichidagi ixtisoslashuv jarayonlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning milliy iqtisodiyot darajasidagi samarasiga erishish uchun tarmoqlararo faoliyatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki, ixtisoslashuv jarayoni alohida korxonalar va tashkilotlarning faoliyat samaradorligini ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, xo'jalik yuritishning turli darajalarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda turli ko'rinishdagi ixtisoslashuv jarayonlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. [Прытков Р.М. Особенности производственной специализации Оренбургской области // Вестник ОГУ. - №8 \(169\)/август 2014. – С.127.](#)
2. Национальная академия наук Беларуси: энциклопедический справочник / ред.: В.Г.Гусаков [и др.]. – Минск: Беларуская навука, 2017. – 599 с.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. 2-е издание. - М.: Эксмо, 2016. С.79.
4. Шестакович Н.К. Теоретический анализ специализации сельскохозяйственного производства. - <https://cyberleninka.ru/article/n/teoretiches-kiy-analiz-spetsializatsii-selskohozyaystvennogo-proizvodstva>
5. [http://economic-definition.com/Scientists\\_and\\_economists\\_theorists/Adam\\_Smit\\_Adam\\_Smith\\_eto.html](http://economic-definition.com/Scientists_and_economists_theorists/Adam_Smit_Adam_Smith_eto.html)
6. Ибрагимов А.Д. Роль специализации в повышении эффективности сельскохозяйственного производства // УЭПС. 2017. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-spetsializatsii-v-povyshenii-effektivnosti-selskohozyaystvennogo-proizvodstva>
7. Зайцев Н.Л. Экономика, организация и управление предприятием. - <https://psyera.ru/6599/vidy-specializacii-proizvodstva>
8. <https://psyera.ru/6598/sushchnost-specializacii-proizvodstva>
9. Специализация производства. - <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/277037>
10. Косенко Т.Г., Дудка Т.Н. Оценка специализации и организационной структуры предприятия / Новая наука: современное состояние и пути развития: Международное научное периодическое издание по итогам Международной научно-практической конференции (9 февраля 2016 г., г.Оренбург)./ в 2 ч. Ч.1 - Стерлитамак: РИЦ АМИ, 2016. – С.137.
11. Финансы, кредит и денежное обращение: словарь-справочник / [авт.-сост.: Л. П. Кураков и др.]. - Москва : Издательство ИАЭП, 2016. - 1167 с.
12. Гаджимурадова К.Б. Специализация и концентрация сельскохозяйственного производства // РППЭ. 2009. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsializatsiya-i-kontsentratsiya-selskohozyaystvennogo-proizvodstva>
13. Отраслевая специализация предприятий. - [https://studopedia.ru/3\\_195871\\_otraslevaya-spetsializatsiya-predpriyatij.html](https://studopedia.ru/3_195871_otraslevaya-spetsializatsiya-predpriyatij.html)

---

---

# Iqtisodiy tadqiqotlar

---

---

**ELEKTRON ILMIY JURNALI**

---

**Таҳририят манзили:**

100003, Тошкент ш., Чилонзор тумани, И. Каримов кўчаси 49-уй

Телефонлар \*\*\*\*\*